

## ZAMONAVIY O’ZBEK ESTRADA XONANDALARINING SAHNA MADANIYATI VA IMIDJI SHAKLLANISHI

**Sharipov Xusniddin Xamitovich**

*Buxoro ixtisoslashtirilgan sana’t maktabi*

**Annotatsiya:** *Ushbu Maqolada zamonaviy o’zbek estrada xonandalarining sahnadagi tashqi ko’rinishi, o’zini tutish madaniyati, kiyinish uslubi, harakatlari, nutqi va umuman olganda sahna imidji shakllanishining asosiy jihatlari tahlil qilinadi. San’atkorning sahnadagi madaniyati tomoshabinga ko’rsatadigan hurmati va badiiy didini aks ettiradi. Shuningdek, maqolada estrada san’ati orqali estetik tarbiya va milliy madaniyatni targ‘ib qilish masalalariga ham e’tibor qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *estrada san’ati, sahna madaniyati, xonanda imidji, estetik tarbiya, kiyinish madaniyati, sahna nutqi, milliy obraz.*

Zamonaviy o’zbek san’atida estrada xonandalarining roli tobora ortib bormoqda. Ular nafaqat qo’shiqlari orqali, balki o’z shaxsiy madaniyati, tashqi ko’rinishi, sahnadagi tutumi bilan ham keng jamoatchilikka ta’sir o’tkazadi. Ayniqsa, yoshlar estrada xonandalarini o’zlariga ibrat, ba’zan hatto ideal sifatida qabul qiladilar. Shunday ekan, xonandaning sahna madaniyati, imidji va o’zini tutish uslubi katta ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyat yuklaydi.

Sahna madaniyati bu — xonandaning sahnada o’zini qanday tutishi, qanday kiyinishidan tortib, tomoshabinga munosabati, nutq madaniyati, mimika, harakatlarigacha bo‘lgan kompleks tushunchadir. Bu madaniyat sahna ko’rinishini jozibador va badiiy etuk ko’rsatadi. Zamonaviy o’zbek estradasida ushbu madaniyatga e’tibor berayotgan xonandalar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, sahna madaniyatini milliy urf-odat va qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda yondashish yuksak baholanishi lozim.

Xonanda imidji: tashqi ko’rinish va uslub

Xonandaning imidji — bu uning ijodiy qiyofasi, o’ziga xosligi, boshqalardan farqlanuvchi belgilardir. Imidjga kiyinish uslubi, soch turmagi, grim, sahnaga chiqishi uslubi, hattoki intervyulardagi ohangdor nutqi ham kiradi. O’zbek estradasida bu borada muvaffaqiyatli brendga aylangan san’atkorlar — Yulduz Usmonova, Shahzoda, Lola, Munisa Rizayeva, Shohruhxon, Rayhon kabi xonandalardir. Ularning har biri o’z imidjini mustahkamlash orqali tomoshabin qalbida unutilmas taassurot uyg‘otgan.

Sahnadagi badiiy ifoda va estetik did

Zamonaviy estrada xonandası nafaqat ovozi, balki butun sahnaviy chiqishi orqali badiiy ifoda vositalaridan foydalanadi. Har bir chiqish o’ziga xos ssenariyga ega bo‘lib, bunda sahna dekoratsiyasi, yoritish, harakatlar, xoreografiya, hatto mimika ham ahamiyatli. Yaxshi xonanda ushbu elementlarni uyg‘unlashtirgan holda musiqiy g‘oyani tomoshabinga yetkazadi. Ayniqsa, milliy liboslar va milliy musiqiy uslublar bilan uyg‘unlashtirilgan

zamonaviy chiqishlar katta qiziqish uyg‘otadi. Bu hol estetik tarbiya nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir.

Xonandaning sahnadagi ijtimoiy mas’uliyati

Estrada xonandasida omma oldida doimiy e’tiborda bo‘lib turadi. Uning har bir so‘zi, harakati va hatto kiyimi keng muhokamalarga sabab bo‘ladi. Shu sababli, sahnaga chiqishdan oldin san’atkor o‘zining nafaqat ijodiy, balki axloqiy pozitsiyasini ham inobatga olishi zarur. Yosh tomoshabinlar ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, ularning estetik qarashlarini rivojlantirish xonandaning ijtimoiy mas’uliyatiga kiradi. Ayrim xonandalar tomonidan haddan ziyod g‘arbona imidjga berilish, milliylikdan uzoqlashish esa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

### **XULOSA**

Zamonaviy o‘zbek estrada xonandalarining sahna madaniyati va imidji ularning ijodiy qiyofasining ajralmas qismidir. Har bir san’atkor sahnaga chiqayotganda nafaqat musiqiy, balki ma’naviy-estetik mas’uliyatni ham o‘z zimmasiga oladi. Sahna madaniyatiga hurmat bilan yondashish orqali xonanda nafaqat tomoshabinni quvontiradi, balki yosh avlodning musiqiy didi, madaniyati va estetik qarashlarini shakllantiradi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Umarov M - Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. -T., 2009
2. Гуревич Е. История зарубежной музыки. 2-е изд. - М., 2000.
3. История зарубежной музыки. Вып. 1-6. - М., - СПб., 19862001.1 Т.-535 с., II т.-277 с., III т.- 533 с., IV т.- 529 с., V т.- 448 с.